kürk və hər üç ayda bir 80 aqça ülüfə bağışlamışdır. Qazi Beydavinin “Ənvar ət-Tənzil” və “Əsrar ət-Təvil” adlı Quran təfsirinə, Ədudəddin əl-İcinin “Adab əl-Bəhs”inin və [www.ehlitevhid.com/ kitab/Azeri-Alimleri.pdf Nasirov; Çələbi 1941, I, 41] Seyyid Şərif Cürcaninin “Təcrid”inin şərhlərinə haşiyələr yazmışdır. Əhməd Ədnirəvi onun gözəl xətti olduğunu, fəzilətli, xoş söhbətli, təmiz əqidəli və əxlaq sahibli insan olduğunu yazır. Mövlana Məhyəddin Bərdəi 927/1521-ci ildə Ədirnədə vəfat etmişdir. Onun övladlarından Bərdəizadə ləqəbi ilə məşhur olan Şəmsəddin Həmdi məşhur şair olub, farsca çox gözəl şeirlər qələmə almışdır. Muhyəddin Bərdəinin “Haşiyə ələ şərh-i İsağoci lil-Kati” adlı əsərinin nüsxələri İstanbulun Köprülü yazma əsərlər kitabxanası və Konya Yusifağa kitabxanasında, “Haşiyə ələ şərh-i Adabil-Bəhs lil-İci”, “Risalətil-Kəlamıyyə” və “Şərhul-Adabul Ədudiyyə” adlı əsərləri isə İstanbulun Köprülü yazma əsərlər kitabxanasında mühafizə olunur [www.ehlitevhid.com/kıtab/Azeri-Alimleri.pdf Nasirov; Bağdadi 1951, II, 229].

Orta əsrlərdə yaşamış Azərbaycanlı filosofu, ilahiyyatçısı və mütəfəkkiri olmuş Mövlana Məhiyəddin Məhəmməd Qarabaği, Qanuni Sultan Süleyman xan dövrünün məşhur alimlərindən olub, Qarabağda anadan olmuşdur [Məmmədov 1994, V, 3621]. İlk təhsilini Qarabağda aldıqdan sonra, təhsilini İranda davam etdirmişdir. Təhsilini İranda tamamladıqdan sonra Dərsəadətə (İstanbul) gedərək, Seyyid Əlizadəyə müavin, daha sonra isə İznikdə müdərriyyə təyin olunmuş və 942/1535-ci ildə elə orada da vəfat etmişdir. O bir çox əsərlər yazmışdır:

Calib əs-surur va salib جالب السرور وسالب الغرور في المحاضرات əl-ğurur fil-muhadarat” adlı kitabı, Cəlaləddin Dəvvaninin “İsbət əl-vacib” əsərinə “Şərh risalət isbət əl-vacib lil-Dəvvani” شرح رسالة إثبات البصيرة في المحاضرات, böyük təfsir alimi Beydavinin “Ənvarut-Tənzil və Əsrarut-Tənvil” adlı əsərinə “Təliqat ələ əl-Kəşaf və təfsir əl-Beydavi” adlı təliqatı تعلیقات على الكشف وتفسير البيضاوي, XII əsrdə Buxarada yaşamış fiqh alimi Məhəmməd Hənəfi əl-Marqinanini “əl-Hidayə” əsərinə “ət-Təlvih əl-Hidayə” التلويح الهداية, XIII əsr Hənəfi fiqh alimi Sədr əş-Şəriə əl-Əvvəlin “Viqayə ər-Rivayə fi-məsaili əl-Hidayə” əsərinə “Şərh əl-Viqayə li-Sədr əş-Şəriə” شرح الوقاية لصدر الشريعة adlı şərh-i və Ədudəddin Əbdürrəhman bin Əhməd əs-Siddiqi əl-İcinin “Ədəb əl-bəhs” əsərinə, “Şərh ədəb əl-bəhs” شرح آداب البحث [Reza 1993, III, 601; Bağdadi 1951, II, 236].

Məhəmməd Qarabaği İbn əl-Ərəbinin “Muhadarat əl-əbrar musamarat əl-əxyar fi ədəbiyyat vən-nəvadar vəl-əxbar”ından bəhrələnərək, جالب السرور وسالب الغرور في المحاضرات “Calib əs-surur

va salib əl-ğurur fil-muhadarat” adlı əsərini yazmışdır [Məmmədov 1994, 275]. “Calib əs-surur və salib əl-ğurur fil-muhadarat” əsəri 23 məqalədən ibarət olub, fəlsəfə və kəlama dair müxtəlif məsələlərdən bəhs edilir: Allah-Təalanın varlığı və birliyinin bilinməsi ilə dinə və axirətə aid əməllər; gözəl əxlaq və doğru yoldan uzaqlaşmalarla ixtilaf edənlərin qüsurları; elmlər və elm sahibləri; səltənət, vəzirlik, ədalət, bağışlama, ordu və silah; çalışmaq, zənginlik, fəqirlik və dünyada buna dair xüsusiyyətlər: eşq və sevgi; ziyarət, qardaşlıq və birlik-bərabərlik. Məhəmməd Qarabağının bu əsərinin onlarla əlyazma nüsxələri, dünyanın müxtəlif kitabxana, muzey və əlyazmalar xəzinələrində qorunub saxlanır. Onların əksəriyyəti Türkiyədə yayılmışdır. Professor Zakir Məmmədov bu əsərin ən qədim nüsxəsinin 1571-ci ilə aid olduğunu yazır [Məmmədov 1994, 275]. XV əsrdə Şamaxı şəhərində anadan olmuş Məhəmməd Dilşad əş-Şirvani Məhəmməd Qarabağının bu əsərini türk dilinə tərcümə etmişdir [Reza 1993, III, 601].

Məhəmməd Hənəfi Qarabaği Təbrizi (942/1535) XIV əsrdə yaşamış Ədudəddin əl-İcinin (1281-1355) polemikanın aparılması üsullarına həsr etdiyi “Ədəbu-l-bəhs” əsərinə mükəmməl bir şərh yazmış və onu “Şərh ədəb əl-bəhs” adlandırmışdır. Qarabağının yazdığı “Şərh ədəb əl-bəhs” əsəri bəzi mənbələrdə “əl-Hənəfiyyə” adı ilə də məşhur olmuş və Şərqdə böyük şöhrət qazanmışdır.

Bu əsərdən XX yüzilliyin əvvəllərinə qədər mədrəsələrdə ritorikaya dair bir tədris vəsaiti kimi geniş surətdə istifadə olunmuşdur. Məhəmməd Qarabaği Təbrizinin (942/1535) “Şərh ədəb əl-bəhs” əsəri Azərbaycanda da geniş şəkildə yayılmışdır. Hal-hazırda AMEA Məhəmməd Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutunda Məhəmməd Qarabaği Təbrizinin (942/1535) “Şərh ədəb əl-bəhs” əsərinin 100-dən artıq əlyazma nüsxəsi mühafizə olunur. Həmçinin bu əsərin dünyanın bir çox kitabxana, muzey və əlyazmalar xəzinələrində nüsxələri mühafizə olunur. Şərq əlyazmaları kataloqlarında bu nüsxələr haqqında məlumatlar bəzən geniş, bəzən də qısa şəkildə verilmişdir. Araşdırmamız nəticəsində Türkiyənin “Adana İl Halk Kütüphanəsi və muzeyi»ndə əsərin XVI-XVII əsrlərdə köçürülmüş 9, İranın «Mərəşi kitabxanası»nda 4, Yəməninin “əl-Əhqaf” kitabxanasında 3, Özbəkstan Elmlər Akademiyasının Şərqşünaslıq İnstitutunun kitabxanasında XVII əsrdə köçürülmüş bir, Tiflisidə “Kekelidze” adına əlyazmalar İnstitutunda XVIII-XIX əsrlərdə köçürülmüş 9, Sankt Peterburqda Şərqşünaslıq İnstitutunda XVI-XIX əsrlərdə köçürülmüş 25, Almaniyanın Berlin kitabxanasında XVI-XVIII əsrlərdə köçürülmüş

2 nüsxələri mühafizə olunduğunu müəyyənləşdirmişik [Şirinova 2017, 30-32; Ahlwardt 1887-1899, 5296-5297]. Mərhum professor Zakir Məmmədov "Azərbaycn fəlsəfəsi tarixi" kitabında verdiyi məlumta görə Məhəmməd Qarabağının bu şərhinin əski çap nüsxəsi 1907-ci ildə Temirxan şurada çapdan çıxmışdır [Məmmədov 1994, 276].

1. AMEA Məhəmməd Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutu (Azərbaycan). "Şərh ədəb əl-Bəhs" əsərin XVI-XIX əsrlərdə köçürülmüş 100-ə yaxın nüsxəsi xəzinəmizdə qorunub saxlanır [Каталог 1984, I, 58-82]. Hazırda bu nüsxələrin beş əlyazması üzərində tədqiqat apararaq tənqidi mətnini hazırlayıram.

2. Adana İl Halk Kitabxanası və muzeyi (Türkiyə). Burada qorunub saxlanan nüsxələr "Risalə əl-Hənəfiyyə" adlanır. XVI-XVII əsrlərdə köçürülmüş bu abidənin 9 nüsxəsi haqqında məlumat verilmişdir [Şirinova 2017, 30-32].

3. Köprülü kitabxanası (İstanbul). "Şərh alə ədəb əl-azdiyyə" və "Şərh ər-Risalə əl-azdiyyə fi ədəb" adlanır [Köprülü 1914, III, 252].

4. Mərəşi kitabxanası (İran). Əsərin 4 nüsxəsi verilib və "Şərh ədəb əl-bəhs" adlanır. Lakin köçürülmə tarixləri yazılmayıb [Şirinova 2017, 30-32].

6. "əl-Əhqaf" kitabxanası (Yəmən). "Şərh ədəb əl-bəhs" əsərinin XVII-XVIII əsrlərdə köçürülmüş 3 nüsxəsi verilib [Şirinova 2017, 30-32].

7. Özbəkstan Elmlər Akademiyasının Şərqşünaslıq İnstitutu (Daşkənd). Əsərin XVII əsrdə köçürülmüş bir nüsxəsi mühafizə olunur [Семёнова 1952-1967, III, 135-136].

8. Kekelidze adına əlyazmalar İnstitutu (Tbilisi). Əsərin adı "ər-Risalə əl-Hənəfiyyə" və ya "Şərh ər-Risalə əl-Azdiyyə" kimi verilib. XVIII-XIX əsrlərdə köçürülmüş "ər-Risalə əl-Hənəfiyyə" abidəsinin 9 nüsxəsi mühafizə olunur [Каталог 1978, 245-248].

9. Sankt Peterburqda Şərqşünaslıq İnstitutu saxlanan nüsxə. "Şərh alə ədəb əl-Bəhs lil-İci Məhəmməd əl-Hənəfi" ("ər-Risalət əl-Hənəfiyyə") adlanır 25 nüsxəsi mühafizə olunur. Bu nüsxələr XVI-XIX əsrlərdə köçürülüb [Şirinova 2017, 30-32].

10. Almanıyanın Berlin kitabxanasında saxlanan nüsxə. XVI-XVIII əsrlərdə köçürülmüş bu abidələr "Şərh ər-Risalə əl-Azdiyyə" və ya "Ədəb əl-bəhs əl-azdiyyə" və ya "Həzə risalət şərh əl-Hənəfiyyə fi ədəb əl-munazara" adlanır [Ahlwardt 1887-1899, 5296-5297].

Məhəmməd Qarabağının bu şərhinə bir sıra Şərq alimləri haşiyələr yazmışlar. Həmin haşiyələrdən biri də Azərbaycan alimi

Mir Əbi-l-Fəth Ərdəbili Mir Əbilfəth Məhəmməd bin Əmin Əl-Səidi Əl-Ərdəbili (875/1470) məxsusdur. XV əsrdə yaşamış Mir Əbul-Fəth Ərdəbili kəlam, ilahiyatçı və riyaziyyatçılardan idi. Türk riyaziyyatçı və astronom Səlahəddin Musa Qazizadə Ruminin tələbəsi olmuşdu. O, bir sıra əsərlərin müəllifidir: “Həşiyə ələ Şərhir-Risalətil-Adudiyyə fi Adabil-Bəhs”, “Həşiyə ələ Şərhil işkalat-Təsis fil-Həndəsə”, “Həşiyə ələ Kuçək”, “Risale fi Məqulatil-Əşr”, “Həşiyə ələ Şərhi Təbrizi”, “Həşiyə ələ Qısmul Məntiq” [Reza 1993, III, 142; Bağdadi 1951, II, 207].

Muhəmməd əs-Səidi Ərdəbili, Qazizadə Rumi Şəmsəddin Muhəmməd ibn Əsrəf əs-Səmərqəndinin həndəsəyə aid olan “Əşkalu Təsis fil-Həndəsə” adlı əsərinə şərh yazmış, Mir Əbul-Fəth Ərdəbili isə bu şərhə həşiyə yazmışdır. Məhyəddin Məhəmməd Qarabağinin “Şərh ədəb əl-Bəhs əl-İci” adlı şərhinə, Mir Əbul-Fəth Ərdəbili həşiyə yazmış və onu “Həşiyə ələ şərh ədəb əl-Bəhs əl-İci” adlandırmışdır. Bəzi mənbələrdə əsərin adı “Həşiyə ələ Şərhir-Risalətil-Ədudiyyə fi Adabil-Bəhs” kimi də verilir [Riue 1978, 806–607].

AMEA Əlyazmalar İnstitutunda “Həşiyə ələ Şərhir-Risalətil-Ədudiyyə fi Adabil-Bəhs” əsərinin XVI-XIX əsrlərdə köçürülmüş 30-a qədər nüsxəsini aşkarlamışıq [Katalor 1984, I, 82–89]. Bu əsərin iki əlyazma nüsxəsi mətnşünas alim Əbdülqəni Əfəndi Nuxəvi Xalisəqarızadənin kolleksiyasında A-100, B-6713 şifri altında mühafizə olunur [Şərifli 2009, 139–140].

Həmçinin bu abidənin bir çox kitabxana, muzey və əlyazmalar xəzinələrində nüsxələri mövcuddur, xüsusən də Türkiyənin kitabxanalarında.

AMEA Əlyazmalar İnstitutunda “Həşiyə ələ Şərhir-Risalətil-Adudiyyə fi Adabil-Bəhs” əsərinin ən qədim nüsxəsi B-8674 şifrili əlyazmasıdır. Əlyazma məcmuənin 97b–121b vərəqlərini əhatə edir. Həmin əsər katib Hidayət bin Məhəmməd bin Can bin Əhməd tərəfindən 1056/1646-cı ildə köçürülmüşdür.

Nəticə

Orta əsrdə yaşamış Abdurrəhman bin Əhməd bin Abdulğaffar bin Əhməd əl-İci əş-Şirazi əş-Şafiinin həyatı haqqında məlumat vermişik. “Ədəb əl-bəhs” əsərinin dünya kitabxanalarında, AMEA Əlyazmalar İnstitutunda, saxlanan nüsxələri və onlara şərh yazan əs-Seyyid əş-Şərif Əli bin Məhəmməd əl-Curcani (740–816/1339–1413), Usaməddin Əbulxeyr Əhməd bin Mustafa bin Taşköprüzadə (901–968/1494–1560), əs-Suğuri Əbu əl-Hac Abdurrəhman, Mövlanə Şah Hüseyn, İbrahim Məhəmməd əl-Əsfərani, Mövlanə Əməd Cindi, əl-Fazil Əbdül əl-Əli İbn Məhəmməd əl-Bərcəndi, Məhəmməd

Baqir. Azərbaycanlı alimlərdən, Məhəmməd Hənəfi Qarabaği Təbrizi (942/1535), Məhyəddin Məhəmməd bin Məhəmməd bin Məhəmməd əl-Bərdəi ət-Təbrizi əl-Hənəfi (927/1521), Mir Əbi-l-Fəth Ərdəbilinin (875/1470) həyatı, yaradıcılıqları, yazdıqları şərh və haşiyələrdən söhbət açmışıq.

Ədəbiyyat

Ateş A. 1992. *İci Adudüddin*. İA V/2. İstanbul.

Özel A. 1990. *Hanefi Fıkıh Alimleri*. Ankara.

عمر رضا كحاله، معجم المؤلفين ١-٤، بيروت، الجزء الثالث، ٥٩ ص، الجزء الرابع ١٨٥.

Каталог арабских рукописей 1984. Академия Наук Азербайджанской ССР Республиканский рукописный фонд. Том 1. Баку: ЭЛМ.

Семенова А.А. 1952-1967. *Собрание восточных рукописей Академии Наук Узбекской ССР, под редакцией и при участии проф.А.А.Семенова*. I-XXX, Ташкент.

حاجی خلیفه و بکاتب چلبی، کشف الظنون عن اسامی الكتب و الفنون، جلد ٢-١، الجلد الاول،

٨٤+٨٣٩، الجلد الثاني، ٢٠٥٦

ص. استنبول ١٤٩١-١٤٩١.

Əski çap kitabları kataloqu. 2010. III cild, ərəbdilli kitablar. Tərtib edən və ön sözün müəllifi Kamandar Şərifli. Nurlan Bakı

اسماعيل پاشا البغدادي، هداية العارفين، استانبول، ١٥٩١، الجلد الاول، ٤٨ ص، الجلد الثاني، ٦١١+٤٧٥، ١٥٩١

Каталог Арабских рукописей Института Рукописей имени К.С.Кекелидзе 197. Издательство Мецни-ереба, Тбилиси.

Ahlwardt, W 1887-1899. *Verzeichniss der Arabischen handschriften der Königlichen bibliothek zu Berlin, I-X, Berlin*. محظوظات مكتبة كو. پرلی استنبول ١٣٤١/١٠٥١٨٩١م

www.ehlitevhid.com/kitab/Azəri-Alimleri. Nəsirov

Sami, Ş. 1316. *Qamus əl-ələm*. V cild, İstanbul.

Şirinova, R. 2017. "Məhəmməd Qarabaği və onun "Şərh ədəbil-bəhs" əsərinin dünya əlyazmaları xəzinəsində nüsxələri". AMEA Məhəmməd Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutu "Azərbaycan əlyazmaları dünya kitabxanalarında" mövzusunda II Beynəlxalq elmi-nəzəri konfransın materialları.

Məmmədov, Z. 1994. *Azərbaycan fəlsəfəsi tarixi*. Bakı: İrşad.

Rieu, Ch. 1978. *Catalogue of the Arabic Manuscripts in the British Museum*. Reprint" Osnabrück.

Şərifli, K. 2009. *Əbdülqəni Əfəndi Nuxəvi Xalisəqarızadə Kitabxanasının Kataloqu*. I c. B., Nurlan.

"Ādab al-bahs" work

Rubaba Bahadır Shirinova¹

Abstract

Ahmad al-Ijī al-Shirazi, who lived in the Middle Ages, was a scholar of theology, method and language. He was born in 680/1281 in Ijida near Shiraz. He was highly educated and wrote many works: "ar-Risala al-Adudiyya fi al-wadiyya", "al-Muwaqif fi elm al-kalam", "Risala fi elm al-akhlaq", "Taliqat litafsir al-Jurjani lil-Muwaqif fi elm al-kalam", "Ādab barakh al-Aduddiyya" and others. In his Hafiz Divan, Haffiz Shirazi called him one of the five most important personalities of the Persian region, "the king of kings of the land of knowledge." Ādab al-Bahs, which is devoted to the methods of polemics, was published in bibliographic sources as Al-Ādabul Adudiyya, Ar-Risala al-Adudiyya, Ar-Risala fi ādab al-Bahs, Risala al-Munazara wa al-Khilaf", "Ādabul talaq al-adudiyya" p. are given by names. Dozens of commentaries, margins and taliqs have been written on this work, which has been taught and memorized in madrassas for many years. (1494-1560), as-Suguri Abu al-Haj Abdurrahman, Mawlana Shah Hussein, Ibrahim Muhammad al-Asfarani, Mawlana Ahmad Jindi, al-Fazil Abdul al-Ali Ibn Muhammad al-Barjandi, Muhammad Baqir and others. an example can be given. Ādab al-Bahs attracted the attention of Azerbaijani scholars, including Muhammad Hanafi Garabaghi Tabrizi (942/1535), Mahyaddin Muhammad bin Muhammad bin Muhammad al-Bardai al-Tabrizi al-Hanafi (927/1521), Mir Abi- l-Fath Ardabili Mir Abilfath Muhammad bin Amin Al-Saidi Al-Ardabili (875/1470) wrote a border.

Until the beginning of the twentieth century, Ādab al-Bahs was taught not only in Azerbaijan, but also in a number of countries in the Middle East. Dozens of copies of this monument are preserved in many libraries, museums and manuscripts around the world. Also, about 20 manuscripts and one old printed copies of the work copied in the XVII-XVIII centuries are preserved in the treasury of the Institute of Manuscripts named after Mohammad Fuzuli of ANAS. The oldest copy of Ādab al-Bahs is preserved in the treasury of the Institute of Manuscripts under the code B-733. This work covers page 156b of the manuscript collection and was copied by the secretary Nukhavi in 1265/1849.

¹ Shirinova, Rubaba Bahadır – PhD, Institute of Manuscripts named after Muhammad Fuzuli of ANAS.

E-posta: rubaba.sirinova@mail.ru

ORCID ID: 0009-0003-9470-5860

For citation: Rubaba Shirinova. 2024, "Ādab al-bahs" work". *Golden scripts* 4: 79 – 90.

Key words: *Haffiz Shirazi, risala, Adab al-Bahs, Garabaghi*

References

- Atesh A. 1992. *İji Adududdin*. İA, V/2. Istanbul.
- Ozel A. 1990. *Hanefi Fiqh Scholars*. Ankara.
- Reza O. 1993. *Mujamul-muallifin*. I-IV, Beirut, Part III 950 p., Part IV 581 p.
- Catalog of Arabic manuscripts* 1984. Academy of Sciences of the Azerbaijan SSR Republican Manuscript Fund. Volume 1. Baku, Elm.
- Semenova A.A. 1952-1967. *Collection of eastern manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, under the editorship and with the participation of Prof. A.A. Semenov*. I-XXX, Tashkent.
- Haji Kh. and Bakateb Chalabi. 1941-1943. *Kashf al-Zunun an Asma'i al-Kutub wa al-Funun*. vol. 1-2, volume 1, 48+938, volume 2, 2056 pp. Istanbul.
- Catalog of old printed books 2010. Volume III, books in Arabic. Compiled and written by Kamandar Sharifli. "Nurlan" Baku
- Baghdadi İ. 1951-1955. *Gift of the Knowledgeable*, Istanbul, volume one, 840 pages, volume two, 116+574.
- Catalog of Arabic manuscripts of the Institute of Manuscripts named after K.S. Kekelidza 1978. *Metsni-ereba Publishing House*. Tbilisi.
- Ahlwardt W. 1887-1899. *Verzeichniss der Arabischén handschriftén der Königlichén bibliothek zu Berlin*. I-X, Berlin.
- Manuscripts of the Coprili Library* 1981. Istanbul, 3, vol. 1401 AH/AD.
- www.ehlitevhid.com/kitab/Azeri-Alimleri. Nasirov.
- Sami Sh. 1316. *Qamus al-Alam*. Cilt V, Istanbul.
- Shirinova R. 2017. "Mohammed Karabakh and copies of his work "Sharh adabil-bahs" in the treasury of world manuscripts". Materials of the II International scientific-theoretical conference on "Azerbaijani manuscripts in the world library" of the Institute of Manuscripts named after Muhammad Fuzuli of ANAS.
- Mammadov Z. 1994. *History of Azerbaijani philosophy*. Baku – Irshad.
- Rieu, Ch. 1978. *Catalog of the Arabic Manuscripts in the British Museum*. Reprint, Osnabrück.
- Sharifli K. 2009. *Abdulqani Efendi Nukhavi Catalog of Khalisagarizade Library*. I c. Baku, Nurlan.

Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin

Sardorbek Umarov¹

Abstrakt

Mazkur maqola o'zbek mumtoz va tasavvuf adabiyotining muhim mavzularidan biri sanalgan futuvvat ilmini yoritishga qaratilgan. Maqolada futuvvatning paydo bo'lishi, kishilik madaniyati tarixidagi o'rni, xususan, islomdan oldingi davrdagi holati, islomdan keyingi tadrijiy takomili va badiiy adabiyotga ta'siri hamda futuvvat g'oyasining badiiy transformatsiyalashuvi Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni qahramonlari misolida poetik tahlil etiladi. Maqolada fatiy bilan so'fiy, darveshlik bilan javonmardlik g'oyalari qiyosiy tadqiq etiladi.

Maqolada futuvvatning tariqatmi yoki oqimmi kabi masalalariga ilmiy izohlar beriladi. Nubuvvat va futuvvat, futuvvat va valoyatning bir-biriga ta'siri, pir va muridlikning futuvvat bilan bog'liq jihatlari, futuvvatning badiiy adabiyotga yaqinlashuvi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: *futuvvat, nubuvvat, oqim, tariqat, so'fiy, darvesh, javonmard, Moniy, zardushtiylik, Avesto, pir va murid.*

Kirish

Dunyo madaniyati va adabiy-estetik tafakkuridagi g'oyaviy-badiiy taraqqiyotning rivoji bevosita tasavvuf adabiyoti va uning o'zagi bo'lmish futuvvat ilmiga ham daxldordir. Asrlar davomida Islom madaniyati bag'rida rivojlangan futuvvat ilmi o'zining mohiyati va ahamiyati bilan tasavvuf ilmining bir bo'lagi sifatida rivojlandi.

Futuvvat so'zining o'zagi arabcha "fatiy" kalimasidan olingan bo'lib, umumiy ma'noda "yosh yigit" degan ma'noni anglatadi. Bu kalima haqida Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: "...fatiy" so'zining yosh yigitga nisbat berilishi haqiqatdir, bundan boshqasi esa majoz, ya'ni ko'chma ma'nodadir. Majoziy ma'noda insoniy fazilatlar nuqtayi nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga nisbatan qo'llaydilar. Va majoz deyilishiga sabab shuki,

¹ Umarov Sardorbek Akmalovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: s.umar91@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-5696-5532

Iqtibos uchun: Umarov S.A. 2024. "Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin". *Oltin bitiglar* 4. 91 – 108.

modomiki solik nafs havasi tuzog'ida tabiiy ehtiyojlar bandida ekan, u go'yo go'dakka o'xshaydi, nafs martabasidan taraqqiy etib, dil maqomiga yetishsa, balog'at ostonasidagi yosh o'spirin qabilida bo'ladi. Yosh yigitda qon qaynoq, badan quvvati (jismoniy quvvat) yetarli bo'lganidek, javonmardlarda ham insoniy kamolot (bilan birga) ma'naviy quvvat yetuk darajada bo'ladi va ushbu martabadagi insonga "fatiy" deydilar" [Koshifiy 2011, 9].

Futuvvat tarixiga doir ilmiy asarlar

Tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lagi sanalgan futuvvat ilmi haqida juda ko'plab fikrlar bildirildi. Mazkur ilmga bag'ishlab maxsus futuvvatnoma turkumidagi asarlar yaratildi. Yirik olimlar va allomalar arab, fors tilida bir qancha kitoblar yozishdi. Jumladan, Sullamiyning "Tasavvuf va futuvvat", Qushayriyning "Risola", Sulaymon Uludag'ning "Futuvvat", "Odob ul-futuvvat" (Futuvvatlar odobi), "Orif ul-masrif" (Oriflar foydasi), "Mirsod ul-a'bod" (Bandalarning mushohada qiladigan joyi), "Haqiqat ul-haqiqat" (Haqiqat bog'chalari) risolalarida, Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", Jomiyning "Risolayi sayr", Zariya Isfahoniyning "Zodul axira" (Oxirat ozuqalari), Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoni", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat", Imom Abu Abdurahmon Sulamiyning "Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima", Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tasavvuf haqida tasavvur", Shayx Ahmad Ibn Muhammad Abdullohning "Axloqus solihiy (Yaxshilar axloqi) kabi kitoblarda futuvvatning mazmun-mohiyati va bu sifatga ega bo'lgan kishilarning ta'rifi tilga olinadi. Lekin ularni chuqur bilmasdan turib futuvvatning mazmun-mohiyati, tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi roli va badiiy adabiyotga ta'siri kabi masalalarni aniqlab bo'lmaydi.

Futuvvat ilmining lug'aviy, istilohiy ma'nolari xususida

Futuvvat ilmi haqida birinchilardan bo'lib ilk bor asar yozgan olim – bu Abu Abdurahmon Sulamiydir. Uning ta'riflashicha, futuvvat istiloh sifatida "Allohning amrlariga bo'ysunmoq, go'zal ibodat qilmoq, har qanday yomonliklarni tark etish, zohiriy va botiniy axloqning eng go'zaliga amal qilishdir" [Sullamiy 1977, 24]. degan fikrni bildiradi. "Farhangi zaboni tojik" lug'atida esa "futuvvat" so'zi (javonmard, saxo, karam) deb izohlanadi [Фарҳанги забони тоҷикӣ 1969, 450]. Husayn Voiz Koshifiy esa "futuvvat" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolariniquyidagicha keltiradi:

“Bilgilkim, “futuvvat” soʻzining lugʻaviy maʼnosi “yoshlik” demak, yosh yigitni “fatiy” derlar. Baʼzilar bu soʻzga izoh berib, futuvvatni javonmardlik (joʻmardlik) deganlar. Istiloh (termin) sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur boʻlishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan oʻz kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz boʻladi. Xos taʼrif yuzasidan esa futuvvat insoniy fitrat nuri zuhrining nafsoniy belgilari zulmatiga qarshi qoʻyilishi, (shu zulmatni) yorib oʻtishidan iboratdir. [Koshifiy 2011, 7].

Eronlik olim Sayyid Jaʼfar Sajjodiyning “Farhangi istilohot va taʼbiroti irfoniy” asarida javonmard istilohiga shunday taʼrif beriladi: “Javonmard – soʻfiylar istilohida komil orif va oʻzidan kechgan insonga nisbatan aytiladi. Javonmardlarning yoʻli haqiqat mujohidlarining yoʻlidan ayrichadir. Ularning ishlari ham oʻzgacha rang-u boʻyga ega, ishlari ham boshqacha zavq-u shavqqa toʻla. Na ruxsat-u uzr ularning yoʻlini toʻsadi, na vahshat, qoʻrquv saltanati ularni qaytara oladi. Nuriy, Abu Hamza va Daqqoqni asir olishadi va qatlgaga buyurishadi. Jallod shamshirini koʻtarib kelganida oldinga Nuriy chiqadi va oldin meni boshimni ol, deydi. “Bu qanday botirlik”, deb soʻragan jallodga Nuriy, jonim birodarlarim uchun qurbon boʻlsin, deydi...” [Sajjodiy 1370, 294].

Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asarining 44-bobi juvonmardlikka bagʻishlangan. Asarda futuvvat istilohi oʻrnida juvonmardlik soʻzi qoʻllangan boʻlib, juvonmardlik – “odamiylik”, “oliyjanoblik” maʼnolarini ifodalagan. “Qobusnoma”da insonning uch xil sifatga egaligi va ularning biri juvonmardlik ekanligi tilga olinadi: *“Bilgʻilki, odam uch xil sifatga egadir. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh nodon boʻlsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri juvonmardlikdir deydi* [Kaykovus 2015, 183].

Futuvvat soʻzini birinchi boʻlib, Jafar Sodiq, yana boshqa manbalarda Fudayl ibn Iyaz qoʻllagan deb koʻrsatiladi [Kusheyri 2021, 230]. Lekin uni birinchi boʻlib qabul qilgan inson Maʼruf Kerhi hisoblanadi [Reʼsat Ongoren 2003, 68]. Ushbu fatiy kalimasi Qurʼonda ham bir necha oʻrinlarda tilga olinadi: “Ular oʻz Robbilariga iymon keltirgan jasur qavm edilar” deya oyat va hadislarda ham keltiriladi [Uludağ 1996, 259]. Qurʼoni karimda futuvvat, fato, fatiy, axiylik tushunchalari juda koʻp oʻrinlarda qoʻllanadi. Adabiyotshunos J.Mahmudov futuvvat va axiylik tushunchalari Qurʼoni karimda 67 marta qoʻllangan desa, turkiyalik Raxshan Gurel oʻz tadqiqotida futuvvat kalimasini Qurʼoni karimda 21 oʻrinda (15 ta oyatda)

zikr etilishi, ularda “yosh yigit, shijoatli” mazmunidan tashqari xizmatkor, pokdomon kanizak, fatvo bermoq, fatvo istamoq, xabar so’ramoq, tush ta’bir etmoq kabi fe’l shakllarida qo’llanganini keltiradi va ularning qanchalik yuksak ma’noga egaligidan xabardor qiladi hamda futuvvatning tarixiy genizesi aynan Ilohiy kalom bilan bog’liqligini ko’rsatadi [Rahşan Gürel 1992, 3,8]. Olima Annamari Shimmel esa “feta” kalimasini Hazrat Aliga nisbatan qo’llangan deb baholaydi [Shimmel 1957, II-T: 197].

Futuvvat va nubuvvat masalasi

Futuvvat tarixiga nazar tashlansa, bashariyat tarixida nubuvvat xayliga qo’shilgan har bir payg’ambarlar avval nubuvvat bilan, keyin esa futuvvat axloqi bilan ziynatlandilar. Javonmardlar goh so’fiy ko’rinishida, goh avliyo ko’rinishida, goh shayx va pir ko’rinishida hayot kechirgan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat shamoyin ul-futuvvat” nomli tazkirasida ko’plab shayxlarning eng go’zal axloqi futuvvat ekanligi ko’p o’rinlarda tilga olinadi. Javonmardlikning eng go’zal sifati biror ishni qilishda faqat jidd-u jahdning o’zi emas, balki boshqalarga oliyhimmatli bo’lishlilikdir. Bu haqida Ja’far b. Muhammad b. Nusayr Xuldiy Havvosning keltirishicha, javonmardlik o’z nafsini xor, musulmonlar hurmatini uluq bilmakdir. Va ham ul debdurkim, oliyhimmat bo’l! Zotan kishini jidd-u jahd emas, oliyhimmat kamolga yetishtiradi [Navoiy 2001, 118].

Futuvvat insonning ichki fitrati bilan bog’liq ruhiy-ma’naviy kuchdir. Insoniylikning birinchi belgisi iymon bo’lib, iymon insonni hayvondan ajratib turadi. Odamiylik, ya’ni javonmardlikning o’zak yadrosi ham aslida iymon sanaladi. Hazrat Navoiy ham odamiylikning birinchi belgisi iymon ekanligini “Hayrat ul-abror” dostoning 1-maqolatida alohida ta’kidlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.

Ulki hadu rasm qo’yar mantiqiy,
Toki bu hayvoni bila notiqiy [Navoiy 1991, 100].

Futuvvat yoki javonmardlik adabiyotlarda ilmimi, tariqatmi yoki oqimmi degan masala ham mavjud. Tasavvufshunos Usmon Turarning keltirishicha, “Futuvvat tashkiloti tuzilish jihatidan tariqatlarga o’xshaydi. Maslakdagi bosqichlar, har bir kasbning mavjudligi, bu maslakka kirganlarning kundalik hayotlarini tartibga solgan futuvvatnomalarning borligi va boshqa jihatlar – bu oqimni muayyan

bir tariqatga o'xshatadi." [Usmon Turar 1999, 97]. Olim futuvvatni diniy-tasavvufiy ilm jihatiga emas, ko'proq ma'lum bir maqsad doirasida uyushgan ijtimoiy guruh manfaatlarini istifoda etadigan oqim sifatida olib qaraydi. Husayn Voiz Koshifiy futuvvatni tariqatning bir bo'lagi deya izohlaydi. Futuvvat tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lganligi uchun u faqat bir tariqatning maslak g'oyalarining umumiy yig'indisi emas, balki barcha tariqat-u oqimlarning maslak g'oyalarini ifoda etadi. Shu sababli ham barcha tariqatning vakillari futuvvat axloqi bilan o'zlarini xulqlantirishgan. Bir kuni Abduqodir Giyloni (qaddasa sirrahu) hazratlaridan so'ralgan: "Ey Abduqodir, shayxing kim?" Javob berayaptiki: "Oldinlari Shayx Hammod Dabbos edilar. Hozir esa ikki dengizdan suv ichmoqdaman. Birinchisi nubuvvat dengizi, ikkinchisi futuvvat dengizidir. Ya'ni Muhammad Mustafo (s.a.v) ning nubuvvat dengizidan va hazrat Ali (karramal-lohu vajhahu)ning futuvvat dengizidan suv ichmoqdaman" [Tasavvuf va naqshbandiylik 2019, 150].

Xulosa qilib aytganda, nubuvvat va valoyat ahlining axloqiy sifati va hol darajasini bildiruvchi futuvvat ilmini faqat tariqat yoki oqimning o'zi deb qabul qilish futuvvatning diniy-tasavvufiy mazmun-mohiyatidan biroz uzoqlashtiradi. Futuvvat ilmi diniy qarashlar doirasida sof axloqiy ilm, tasavvuf doirasida o'rganilsa tariqat, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida olib qaralganda, oqimdir degan xulosaga kelish mumkin.

Futuvvat ilmi insonga berilgan axloqiy sifat bo'lib, bu sifat avvalo, Allohning O'zidan payg'ambarlarga, keyin avliyolarga, pirlarga, podshohlarga va bani bashariyatga berilgan fazilatdir. Shuning uchun ham so'fiylar payg'ambarlardan meros qolgan futuvvat axloqqa ega bo'lishga har doim intilganlar.

Payg'ambarlarning hayot yo'li va ular bilan bog'liq nubuvvat va futuvvat masalasi arab, fors va turk olimlari tomonidan ham atroflicha o'rganilgan [Peygamber ve fütüvvet, 2017]. Ammo tasavvufning futuvvat bilan, so'fiylikning esa fatiylik bilan bog'liqligi jihatlari to'liq tadqiqot doirasida o'rganilmagan.

Islom, so'fiylik va futuvvat masalasiga doir mulohazalar

So'fiylik va fatiylik masalasining tarixiy ildizlari ko'proq payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) vafotlaridan keyin hokimiyat tepasiga kelgan xalifalik davri bilan bog'liqdir. Xalifa Abu Bakr Siddiq va Umar hukmronligi davrida payg'ambar sunnatiga qattiq amal qilindi. O'sha davr jamiyatida odamlar oddiy yashar. Boy va kambag'al ham teng haq-huquqqa ega edi. Hattoki, xalifa Abu

Bakr va Umar ham oddiy faqirona hayot kechirar edi. Ammo Usmon zamoniga kelib, jamiyat qatlamlari orasida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Odamlar sinfiy boy va kambag'alga ajrala boshladi. Hukmdor Usmon shaxsiy yerlar, minglab qo'y va tuyalarga egalik qilardi. Usmon zamonida yaqin qarindoshlari ham asta-sekinlik bilan boylik orttirishga kirishdi. Bu esa jamiyatdagi ba'zi bir toifalarning xalifalikka nisbatan nafratini kuchaytirdi. Usmon vafotidan so'ng, xalifalik taxti Ali ibn Abu Tolib qo'lga o'tdi. Ma'lum bir muddat xalifalik tepasida turgan Aliga nisbatan qarshiliklar paydo bo'ldi. Ali hokimiyati tugatilishi bilan Xalifalik davri ham o'z poyoniga yetdi. Endi tarix sahnasida hijriy 661-yilda Ummaviylar sulolasidan Muoviya ibn Abu Sufyon hokimiyat tepasiga keldi. Muoviya taxtiga rahna solishi mumkin bo'lgan xalifalik avlodlarini birma-bir yo'q qilishga kirishdi. Ayniqsa Ali va uning avlodlari juda qattiq ta'qibga uchradi. Xalifa Muoviya hokimiyati diniy asoslardan chetga chiqib dunyoviylashib ketdi. U hokimiyatini saqlab qolish uchun tartib-qoidalar ishlab chiqishi lozim edi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) davrida dunyoviy qonun qoidalarga deyarli ehtiyoj yo'q edi. Chunki Qur'oni Karim va vahiyni o'zi butun arab jamiyatini boshqarishda dasturilamal edi. Mazkur muammoni anglagan ummaviylar sulolasi xalq ichidan chiqqan yoki boshqa yerlardagi hadislarini bilgan kishilarni (ular tobeinlar deb yuritilgan) o'z atrofiga yig'ishni boshladi. Natijada muhaddislik shakllandi. Lekin muhaddislar ichidan ham muhaddislarga va ummaviylarga qarshi kishilar paydo bo'ldi. Bular tarixda zuhdlar (zohid, ya'ni ibodat qiluvchi), obid, darveshlar deb ataldi. VII asr o'rtalarida zohidlik harakati sifatida qayd etilgan Muhammad bin Karrom boshchiligidagi «as'hobi zuhd va taabbud», ya'ni «zuhd va ibodat ahli harakati» ham, arabcha istilohda «futuvvat» deb nomlanganligi ham bejiz emas edi [Sirojiddinov 2011, 87].

VII–VIII asrlarda ummaviylar hokimiyatining tugashi va Abbosiylar xalifaligi boshlanishi paytlariga to'g'ri kelar edi. Zohidlar hamma narsani yaxshilik va yomonlik; halol va haromga ajrata boshladilar. Butun hayotlarini toat-ibodatga bag'ishladilar. Ilk zohidlarning uyushmasi Abu Hoshim tomonidan Ramla shahrida tashkil etilgan. Bu uyushmaga a'zo bo'lgan zohidlar o'rtasidagi falsafiy qarashlar ikki xil yo'nalishda rivojlandi. Biri Qur'on va hadisga amal qilib, xilvatga yuzlanib jannat orzusida Allohga zuhd qiluvchilar bo'lsa, ikkinchisi o'zlik menidan qutulib zavq va muhabbat bilan Alloh jamoliga yetish umidida faqir va darvishona yashovchi zohidlar edi. Ikkinchi guruh zohidlarining hayot yo'li so'fiylik bilan bog'lanib, so'fiylikning rivojlanishiga zamin hozirladi. Boyazid

Bistomiy, Uvays Qaraniy, Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Robiya Adaviyalar, Zunnun Misriylar shular jumlasidandir.

Futuvvat tashkilotlarining shakllanish tarixi

Futuvvatning ma'lum bir guruh tabaqalardan tashkil topgan uyushmaga aylanish davri zohidlik davri bilan birgalikda kechdi. Umuman futuvvat g'oyasini ma'lum bir tashkilotning maslak g'oyasiga aylantirishning tarixiy asoslari haqida dunyo olimlari o'rtasida turli xil ixtiloflar mavjud. Turkiy xalqlar tarixini islomgacha va ilk islom davridagi holatini manbalar asosida tadqiq etilsa, bu davrda buddaviylik, zardushtiylik, moniylik kabi din va oqimlar turkiy xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va falsafiy tafakkuriga kuchli ta'sir etganligini ko'rish mumkin. Turkiy xalqlarning islomgacha va ilk islom davri hayotida ham futuvvat va javonmardlik g'oyalari mavjud edi. Masalan, Zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalgan "Avesto"ning bosh g'oyasi sanalgan "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" g'oyasi aynan javonmardlik tariqatining ayni mohiyati istifoda etadi. "Avesto"da javonmardlik haqida shunday fikrlar bor:

– Ey, Mazda!

Sening Olam Shahriyoringdan manzur bo'lguvchi ezgu qudrating qaysidir? Menga va mening yoronlarimga atalgan Sening ajr-mukofoting nedir?

– Ey, Ahura!

Ashah – Haqiqat va Ezgu Niyat nurlari ostida yumushlarimizning hal bo'lmog'i, ishlarimizning olg'a bosmog'i uchun javonmardlar huzurida ayon-u oshkor bo'lishingni nechog'li orzu qilaman!" [Avesto 2001, 26].

"Avesto" olam va odam, shaxs va jamiyatni komillikka chorlovchi buyuk odamiylik, insoniylik falsafasidir. Mazkur kitobda keltirilgan javonmardlik falsafasi asrlar osha juda ko'plab pandnoma va qahramonlik ruhidagi badiiy asarlarga ham o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Masalan, eng qadimgi O'rxun-Enasoy bitik toshlari, Firdavsiyning "Shohnoma"si, Kaykovusning "Qobusnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi padnoma turkumidagi barcha asarlarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

"Avesto"dagi "Olam Shahriyori ruhlar dunyosida Ahuramazdaning amr-irodasini bajarsa, moddiy olamda ma'danlar ilohi, bechoralar va g'arib-u benavolarning panohidir. Uni mehribonlik va javonmardlik olami deb ham ataganlar" [Avesto 2001, 304]. Javonmardlikning tarixiy asoslarining ildizini "Avesto"dan topish mumkin. "Avesto"da keltirilishicha, "Kayumart" (Gayah maritan),

pahlaviyda “Gayumard” – ma’nosi o’lguvchi jon, yo’qlikka mahkum jon. Forsiyda u “Kayumars” shakliga o’zgargan. Kayumart Ahura Mazda yaratgan ilk bashardir. U yaratuvchi bunyod etgan astumand (moddiy) olamning oltinchisi. Uning yaratilish muddati yetmish kun, ya’ni oxirgi gahanbor (yaralishning so’nggi pallasi)da xotima topdi. Kayumart fikr qilguvchi ilk odam edi” kabi mazmundagi talqinlarga duch kelamiz [Avesto 2001, 327].

“Avesto”dagi javonmardlik olami Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham tilga olinadi: “Ey farzand, bilgilki donishlar aql va juvonmardlikdin alfoz bila jasadsiz bir necha surat yasabdurlar. Bu suratlar tan, jon, havos va maoniy suratidir. Debduurlarki, bu suratning tani – juvonmardlik, joni – rostlik, havosi – donishmandlik, maoniysi – safodir. Tan yetg’on guruh iyorlar va sipohiylandurki, haloyiq ularga juvonmardlar deb ot qo’yidilar; tan va jon yetg’on guruh zohirda ma’rifat sohibidurlarki, haloyiq ularga yolg’on ma’rifat deb ot qo’yidilar; tan, jon va havos yetg’on guruh hukamo, anbiyo va avliyodurlarki, xaloyiq ularga g’oyat donishmand deb ot qo’yidilar; tan, jon havos va maoniy yetg’on guruh farishtalardir va ularga juvonmardlik nasib bo’ldi”, deydi [Kaykovus 2015, 158].

“Qobusnoma”da iyorlar so’zi bir necha marotaba qo’llanadi. Lekin mazkur so’zning lug’aviy va istilohiy ma’nolari haqida yetarlicha ma’lumot berilmagan. “Iyor” so’zi arabcha so’zdan olingan bo’lib, “mezon”, “o’lchov”, “tartib”, “nizom” degan ma’nolarni ifodalaydi. Mazkur istiloh Bag’dod va Xuroson shaharlarida ijtimoiy-siyosiy harakatlar bilan bog’liq termin sifatida ishlatilgan. “Iyor” so’zi futuvvat va javonmardlikda futuvvat ahlining bir turi yoki ma’lum maqsad doirasida uyushgan guruhni ifodalab kelgan. Futuvvatnoma turkumiga oid juda ko’plab asarlarda mustabid tuzumga qarshi xalq ichidan chiqqan yosh yigitlar jamoasini ham ifodalab kelgan. Bu qatlam xalq himoyachilari, milliy ozodlik yo’lida boshini dorga tikishgacha (sarbadorlar) borgan milliy xalq qahramonlar sifatida mashhur bo’lgan. “Iyor” so’zi axloqiy istiloh sifatida javonmardlikning amaliy ko’rinishi bo’lib, himmat, saxovat, fidoyilik, to’g’rilik asosida yashaydigan inson ma’nosiga to’g’ri keladi. “Qobusnoma”da juvonmardlikning muhim uch xususiyati sanab o’tiladi: “juvonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg’on so’zingni o’zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, hayr ishni ilgari tutsang. Odamdag’i qolg’on barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadur” deya izohlaydi [Kaykovus 2015, 158–159].

Umuman, futuvvat ilmining bu kabi talqinlari Zardushtiy-

likning muqaddas kitobi sanalgan Avesto orqali keyingi davr namunalari ham ko'rinadi. Futuvvat va javonmardlikning ma'lum oqim sifatida shakllanish tarixini falsafashunos olim S.Karimov Moniy va Mazdak ta'limotiga borib taqalishini ta'kidlaydi [Karimov 2021, 217]. Bu kabi talqinlar esa futuvvat va javonmardlikning ma'lum bir uyushmaga birlashish davri forsdagi va arablarda shakllangan degan an'anaviy talqinlarni rad etadi. Aslida futuvvatning paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyotini Qur'oni karimdan va payg'ambarlar tarixidan izlash o'rinliroq.

X–XI asrlar "Ixvon as-safo" (Soflik og'alari) uyushmasi ham aynan futuvvat jamoalariga birlashgan guruhga o'xshab ketadi. "Ixvon as-safo", (X–XI) futuvvat, axiylik, javonmardlik kabi orifiy-zohidlik g'oya va harakatlar mavjud ediki, o'shalar asosida tasavvuf qaror topgan edi. G. E. fon Gryunebaum o'zining "Mumtoz Islom" asarida "...so'fiylar o'z g'oyalarini futionlardan (ya'ni futuvvatchilardan) qabul qilgan", deb yozadi [G. E. fon Gryunebaum 1986, 183]. IX–XI asrlardagi darveshlar jamoasi hunarmandlar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lganligini Y. E. Bertels ham alohida ta'kidlaydi [Bertels 1965, 21].

Ilk fatiylik uyushmalari islom paydo bo'lmasidan oldin Eron, Iroq va Arabiston yarim orolida mavjud edi. Mazkur guruh uyushmalarning g'oyaviy va falsafiy asoslari alturizm, birodarlik, xayrixohlik kabi axloqiy tizimni nazarda tutardi. Futuvvat islomdan oldingi davrlarda saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, iysor kabi qadriyatlar bilan uyg'un talqin etilgan. Islom dinidan keyin esa futuvvat tashkiliy birlashmalarga birlashishi tezlashdi. Muruvvat, saxovat, himmat, ehson; javonmardlik, jasorat, mardlik, birodarlik, mehmonnavozlik, oliyjanoblik kabi tushunchalar islom madaniyatida axloqiy kategoriya darajasiga ko'tarildi. Natijada, futuvvat g'oyalari islom madaniyatida axloqiy kodeks maqomiga aylandi. Uning axloqiy mazmun kasb etishi Qur'oni karimga, undan keyin esa payg'ambarimiz va u zotning sahobalari hayoti va sunnatga borib taqaladi. Demak, futuvvat ilmi islom olamida birinchi navbatda axloqiy qoidalar majmuasi sifatida shakllangan, deya xulosa qilish mumkin.

Futuvvat, darveshlik va faqr masalasi tadqiqiga doir izlanishlar

VII asr oxiri va VIII asr boshlarida tasavvuf tarixining ilk rivojlanish davri bo'lib, bu davrda so'fiy so'zi o'rnida zohid so'zi ishlatilar edi. Mazkur davrni Eronlik olim Birinjkar [Биринджкар

2014, 7-8], turk olimi U.Turar va K.Yilmaz “zuhd” (zohidlik) davri deb atashgan [Selçük 1994, 25].

Ingliz sharqshunosi R.Nikolson “soʻfiylik islomdan oldingi davrda ham mavjud boʻlgan degan” degan fikrni ilgari suradi [Nicholson 1978, 58–60]. VIII asr oxiri va IX asr boshiga kelib zohid soʻzi oʻrnida soʻfiy soʻzi faol qoʻllana boshlandi. Asta-sekin soʻfiylik rivojlanib ketdi. IX–X asrlarga kelib soʻfiylarning mistik jamoalari paydo boʻldi. X asrda Iroqdagi mistik maktabning ovozi har yerga yoyilgan boʻlsa-da, boshqa yerlardagi mistik maktab qoidalarida “soʻfiy” istilohi qoʻllanilmas edi. Soʻfiy Oʻrta Osiyo va Xuroson mistik maktablarda “hakim” deb nomlanar edi. Masalan, Hakim Termiziy asarlarida soʻfiy atamasi ishlatilmagan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Hakim al-Naysaburiy al Bayyiy (v 409/1014) tomonidan yozilgan “Tarixi Nishopur” asarida IX-X asrlarda Nishopurda yashagan olimlar, mashhur kishilarning tarjimai holi berilgan. Bu kitobda 50 ga yaqin mistik maʼlumotlar bor. Ularning birortasida ham soʻfiy yoki malomatiy deb atalmagan. Ular koʻproq zuhhod, ubbod deb atalgan [Сирождидинов 2011, 88]. Ular oʻz tartib qoidalariga ega edilar. Soʻfiylik tashkilotlari oʻz halqalarini ishlab chiqishdi. Bu halqalar ichida pir va muridlik masalasi alohida ahamiyat kasb etardi.

Tariqatning shakllanishi va soʻfiylikning mazmun-mohiyatini bilish uchun murid pirga qoʻl berib undan ilm oʻrganishi kerak edi. Pirlar oʻz muridlariga turli xil ogʻir sinovlar berib nafsini tarbiyalar edi. Muridlar pining xonaqohlarida ilm olishar va boʻsh vaqtlarida kasb-hunar bilan mashgʻul boʻlishardi. Odatda xonaqohlar odamlar gavjum shaharlarda bunyod etilar edi. Basra, Kufa, Nishopur va Bagʻdoddagi soʻfiylik jamoalari hunarmand kosiblar jamoalari bilan doim aloqada boʻlgan. Atoqli shayxlarning tarjimai hollari bilan tanishish ularning aksariyati kasb-korning u yoki bu turi bilan mashgʻul boʻlganligini koʻrsatadi. Shunga asosanib aytish mumkinki, darveshlar jamoalari va kosiblarning yashirin tashkilotlari (futuvvat) oʻrtasida qandaydir aloqalar ham boʻlgan [Бертельс 2005, 74].

Futuvvat guruhleri va darvesh jamoalarining bir-biriga yaqinligi va aloqadorligi haqida Alisher Navoiy oʻzining “Farhod va Shirin” dostonining 18-bobida toʻxtaladi. Unda jannat va doʻzaxni yaratgan Allohning jabborlik (rahmdillik) bilan birga qahhorlik (qahrli) sifatleri keltiriladi. Va agar kimgaki shohlik oynasi berilsa, u fanofilloh maqomiga tushib, Alloh jamoliga muyassar boʻladi. Allohning zotiga yetgan qul banda Haq sifatlariga ham ega boʻlmogʻi kerak. Allohning jamoliga yetishish (vuslat) har qanday ulugʻlik

maqomidan ham ustundir. Biror dushman uning joniga qasd qilsa-yu, bu esa dushmaniga jonini qurbon qilsa yoki hodisalar kamonidan yuzlab o'q otilsa-yu, bu o'qlarni dushmaniga emas, o'ziga ravo ko'rsa bu ish darveshlikka xos sifatlardandir deydi:

Qay-u dushmanki, qasdi joni qilg'ay,
Tilarkim, jon aning qurboni qilg'ay.

Havodis shastidin gar kelsa yuz o'q,
Ravo ko'rgay o'ziga, o'zgaga yo'q.

Bu darveshlikda xush sifatdur,
Vale shohlig'da noxush xosiyatdur.

Navoiyning darveshlik haqidagi umumfalsafiy qarashlari zahirida futuvvat g'oyasiga xos bo'lgan o'z manfaatidan boshqalar manfaatini ustun qo'yish (alturizm) g'oyasi yotadi. Bu g'oyalarning ildizi esa Qur'oni karimga va payg'ambarimiz sunnatiga borib bog'lanadi. Rasululloh sollalohu alayhi va sallam aytdilarki: "Kim do'zax olovidan uzoq va jannatini bo'lishni istasa, ajalini Allohga va qiyomat kuniga ishongan – imon keltirgan holda qarshilasın. O'ziga ravo ko'rganni o'zgalarga ham ravo ko'rsin, ya'ni odamlarning o'ziga nisbatan qanday muomala qilishlarini xohlasa, u ham odamlarga shunday muomala qilsin" [Ахмад Ибн Муҳаммад Абдуллоҳ 2020, 172]. Payg'ambarimiz hadislarida keltirilishicha, "O'zi yaxshi ko'rgan narsani birodariga ravo ko'rmoqlik iymondandir. O'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz" [Buxoriy 1991, 7].

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov bu haqida shunday deydi: "Futuvvat bilan tasavvuf g'oyalari aksar bir-biriga muvofiq keladi. Futuvvat ham, tasavvuf ham inson axloqini poklash, mehr-u shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ib etadi. Va bu jihatdan ilohiyot ishqida dunyodan yuz o'g'irgan, jismini ma'naviy kamolot yo'liga qurbon etgan darvesh bilan birodarlik, fidoyilik udumiga sodiq javonmardning maqsadlari mos edi" [Комилов 2009, 110]. Demak, o'zi sevgan narsasini do'stiga ravo ko'rish musulmonlikning muhim jihatlardandir. Darvesh bilan javonmard futuvvatning ana shunday muhim axloqiy talablariga sidqidildan amal qilgan. Faqrlik ixtiyor etgan solih bilan futuvvat yo'liga kirgan javonmard umumiy maqsadlari bir-biriga aloqador bo'lsa-da, ma'lum bir masalalarda farq qiladi. Faqirlik – Allohga olib boradigan eng qisqa yo'lidir. Faqirlik yo'liga kirgan solih fanoga yetish uchun o'z nafsi bilan kurashadi. "Menlik"ni mahv etib ilohiy o'zlikni anglay-

di. Bunday faqirga esa bu dunyo muammolari qiziq emas. Futuvvat yo'lga kirgan javonmard esa ham jismonan, ham ruhan o'z nafsiga qarshi jihad qiladi. U ham "menlik"ni yengib, ilohiy o'zlikni anglaydi. Ammo fatiyning faqrdan farqi esa u olam va odam muammosini o'zining azaliy muammosi deb biladi. U ilohiy mohiyatni anglab xalqni to'g'ri yo'lga qaytarish, jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi kurashish uchun ilohiy dargohdan ortga qaytadi.

Bu esa axloq masalasida ularning g'oya va qarashlari mushtarak ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Juda ko'plab tasavvufshunos olimlar futuvvat ilmini faqat axloqiy jihatlariga e'tibor berib tasavvuf bilan bog'liq taraflarini tahlil qilish bilan cheklanadilar. Futuvvat va tasavvuf har doim bir-biriga uzviy bog'liqdir. Futuvvat tasavvufsiz nazriy mohiyat kasb etmaganidek, tasavvuf ham futuvvatsiz amaliy mohiyat kasb eta olmaydi. Tasavvuf ko'proq xos kishilarga mos ilm bo'lsa, futuvvat xalq ommasiga mo'ljallangan ilmdir. Lekin yuqoridagi fikrlar orqali futuvvat faqat tasavvufning xalqona amaliy ko'rinishi ekan, degan biryozlama fikrga bormaslik lozim.

Tasavvufdagi tarkidunyochilik qilish g'oyasi futuvvatda qoralanadi. Futuvvatda halol mehnat qilib, rohat va farog'atda yashash g'oyasi ilgari suriladi. Keyin vahdat ul-vujud muammosida ham ularning qarashlari bir xil emas. Futuvvatchilar Alloh va insonning bir biriga qo'shib ketish g'oyasini oqlamaydilar. Ularning nazdida Xudoni faqat irfoniy idrok qilish va uning zotiy sifatlarini mushohada qilish mumkin xolos. V.Vazirovning keltirishicha, futuvvatga kirgan murid 3 bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqichda murid pir yordamida Allohni idrok qilishni o'rganadi. Ikkinchi bosqichda esa Alloh tomonidan yuborilgan barcha diniy kitoblarni mushohada qilishni o'rganadi. Uchinchi bosqichda esa Alloh ma'rifatini mukoshafa qilish qobiliyatiga ega bo'ladi [Вазиров 1991]. Olimning yuqoridagi tahlili ko'proq vahdat ul-shuhud ta'limotiga yaqin keladi. Olimning bu talqini yana mufasssalroq tahlil qilish mumkin:

1. Toliblik (talab) – mazkur birinchi bosqichda murid futuvvatga kirish uchun pirga qo'l beradi. O'z nafsini poklashga kirishadi. Bu bosqichda sabr, hilm, to'g'rilik muhim sanaladi.

2. Muridlik (suluk) – bu bosqichda murid ma'naviy poklangandan so'ng, futuvvat ahdini qabul qiladi. Majlislarda ishtirok etadi. Kasb-hunar o'rganadi. Jismoniy-ruhiy jihatdan tarbiyalanib boradi.

3. Fato (javonmard) – bu bosqichda murid eng yuqori darajaga yetadi. Unda komil insonga xos sifatlar shakllanadi. Zohiri xalq bilan botini esa Alloh bilan qurb hosil qiladi.

Bu bosqichlar tasavvuf tariqatlaridagi sayr-u suluk bosqichlariga juda yaqin ammo bir-biridan farq qiladi. Futuvvatda bu jarayon ko'proq ijtimoiy, kasbiy-ma'naviy jihatlari bilan namoyon bo'ladi. Mazkur talqinning badiiy adabiyotga transformatsiyalashuvini Alisher Navoiyning "Xamsa" asari orqali yanada aniq tasavvur qilish mumkin.

Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin

